

## Boltaboy Bekmatov Ijodida Nafs Talqini

*Rajabova Nodira Hakimboy qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada taniqli shoir Boltaboy Bekmatov ruboiylaridagi nafs tarbiyasi tahlilga olingan.

**Kalit soʻzlar:** nafs, iymon, zulm, johil, oqil, orif, baxil.

Oʻzining betakror sheʼriyati, teran ijodiy mahorati bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan Boltaboy Bekmatov 1958-yil Toshhovuz viloyatida tavallud topgan. 1986-yili Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyati boʻlimi shoir Boltaboy Bekmatovni Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi Adabiyot oliygohiga oʻqishga tavsiya qilishadi. Shoirning sheʼriyat ummonida oʻz soʻzi va oʻz oʻrniga ega boʻlishida ushbu oliygohning oʻrni beqiyosdir. Uning dastlabki sheʼriy toʻplami “Alvon uchqunlar” nomi bilan 1992-yili chop qilindi. 1993-yili esa shoirning ikkinchi sheʼriy toʻplami – “Seni koʻrgim keladi” kitobi nashr qilinadi. Shunday soʻng shoirning “Цветок в хрустальной вазе” (1996), “Billur guldon” (2012) kabi sheʼriy, “Mangulik yoʻli” (1998), “Vohta bulbuli” (2000), “Shovot mavjlari” (2001), “Ona orzusi” (2005) kabi koʻplab nasriy, publisistik toʻplamlari eʼlon qilindi.

Boltaboy Bekmatov shoir uchun ijodiy oʻsish bosqichi hisoblangan badiiy tarjima bilan ham shugʻullangan. U H.Heyne, A.S.Pushkin, A.Fet, V.Bryusovning koʻplab sheʼrlarini, shuningdek, hozirgi zamon rus, turkman, qoraqalpoq shoirlarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Boltaboy Bekmatov bir sheʼrida “shoir qalbi bir nihol, parvarishsiz qulaydi”, -- deydi. Shoir ijod niholi yetuk daraxt misoli qad rostlagani asarlaridagi mazmun teranligi, ifoda jozibasini, uslubiy rang-baranglikda yaqqol koʻzga tashlanadi. Shuningdek, odatdagi toʻrtlik sheʼrlar bilan birga maxsus turkumlar, uchliklar, mansuralar shoir ijodining oʻziga xosligini oshirgan. Uning ijodining serqirraligi, mazmundorligi sheʼriyat ixlosmandini oʻziga rom etadi. Eʼtiborli jihati shundaki, u oʻz ruboiysida nafs tushunchasini koʻp bora qoʻllagan. Nafs arab tilida “intilish”, “gʻurur”, “hirs” kabi maʼnolarni anglatadi. Oʻzbek tilida esa bu soʻz “kishining biror narsaga ega boʻlish istagi” maʼnosini anglatish uchun ishlatiladi.<sup>2</sup> Tohir Malik “Nafs kishandali” asarida nafsga shunday taʼrif beradi: “Zulmning ota-onasi – nafsdur. Uning oqibati – halokatdir. Zulm – oʻzganing zulmini chaqiradi, nafs – oʻzganing nafsini oʻziga chorlaydi”. B.Bekmatov ijodida ham nafsga giriftor boʻlish oqibatlari, havoyi nafsdan tiyilish haqidagi insonlarga daʼvati aks etgan:

Holing yomoniga nafsing sababchi,

Ranging somoniga nafsing sababchi.

Jilovlay olamsang bu asov otni,

Umri poyoniga nafsing sababchi.<sup>3</sup>

Dinimizda nafsni poklash, ertangi kunga nima tayyorlaganiga nazar solib turishi oʻta muhim vazifadir. Nafs tarbiyasi eng hassos mavzulardan biri boʻlib, bu mavzuda koʻplab mashoyixlar soʻz yuritganlar. Xalqimizda “Mening nafsim balodir, yongan oʻtga soladir” degan maqol bor. B.Bekmatov ham nafsning kishi holini yomon, rangini somon aylashini va oxir-oqibat umri poyoniga sababchi boʻlishini taʼkidlaganlar va shu oʻrinda nafsni “asov otga” ga qiyoslaydi. Nafs goʻyoki boʻysunmas ot singaridir. Unga boʻyin eggan oxiri oʻzini ham yoʻq qiladi. Shoirning keyingi ruboiysida nafsni sabab chivinning ozuqaga aylanishi chiroyli dalillanadi:

<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti 4-bosqich talabasi

<sup>2</sup> Sh.Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. Toshkent: Universitet, 2003, B320

<sup>3</sup> B.Bekmetov. Sen bilan hayotman. Urganch: Xorazm,2018, B59



Hozirgina parvoz qilib yurgandi,  
Sho‘x-shodon qo‘shiq, soz qilib yurgandi.  
Nafsi chalg‘itdiyu qo‘ndi. Zarb yedi,  
Chivin chumoliga ozuqa endi.<sup>4</sup>

Nafsning botiniy zulmlari cheksiz. Jaloliddin Rumi shunday deganlar: “Aql qo‘ydir, nafs bo‘ri, iymon esa cho‘pon. Agar iymon kuchli bo‘lmasa, nafs aqlni yeydi”. Xuddi shuningdek, chivinning nafsini uni yo‘ldan ozdirdi. Natijada, biroz oldin shod-u hurrām qo‘shiq kuylayotgan chivin yerdagi chumoliga yegulikka aylandi. O‘z havoyi nafsini uni o‘lim domiga boshlab bordi. Shu sababdan ham Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida “Yetmish shayton birlashib qilolmagan ishni bir nafs qila oladi” deya ta’kidlangan.

Qizg‘anch, baxillarni ko‘rdi bu dunyo,  
Orif, oqillarni ko‘rdi bu dunyo.  
Sakson yoshdan o‘tib, nafsini tiymagan,  
Gumroh, johillarni ko‘rdi bu dunyo.<sup>5</sup>

Olam yaratilibdiki, ne-ne ulug‘ zotlar, shayx-mashoyixlar, olim-u donishmandlar bilan xudbin, razil, baxil, tubanlik botqog‘iga botgan kimsalar ham zaminda, bir zamonda yashab kelishgan. Shoir ushbu ruboiysida aynan shunday kishilar haqida so‘z yuritadi. O‘zi yemas, o‘zgaga bermas, kimsaga hech narsani ravo ko‘rmaydigan baxil, xasis kishilar; ilohiy ma‘rifatdan xabardor orif, oqil zotlar; yo‘lini yo‘qotgan gumroh kimsalar; ilm-ma‘rifatdan mahrum johillar – dunyo ne-ne kimsalarni ko‘rmagan. Shu o‘rinda saksondan oshgan kishilar ham o‘z havoyi nafsini sabab gumroh, johillarga qiyoslanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Chin orif, oqil kishilar uldirki, o‘z nafsini gunohdan pok bilmaydi va doimo Haq taolaga qullik qilib, “senga loyiq ibodat qilolmadik” deydi. Chin orif garchi erta-yu kech ibodatdan biron ham forig‘ bo‘lmasa-da, o‘zini barcha mo‘minlardan kamtarin tutishi, manmanlik qilmasligi darkor.<sup>6</sup>

Nafsini tiyganlar isrof qilmagay,  
Isrofini suyganlar ko‘ngli to‘lmagay.  
Nafsingni tiymoq ham iymondan darak,  
Iymon bandalari fosiq bo‘lmagay.

Oloho taolo farishtalarga nasf bermaydi, iymon beradi. Hayvonlarga esa faqat nafs beradi. Odamzotga ham nafs, ham iymon beradi. O‘z nafsini jilovlagan kishining iymoni mukammal bo‘ladi. Agarda nafs odamzotni jilovlasa shayton izmiga kiradi va barcha hayvoniy sifatlarga ega kimsaga aylanadi. Iymonli kishilar har daqiqaning, har narsaning qadr-qimmatini anglagan holda hamma narsani qadrlaydilar. Fosiq kishilar esa narsani isrof qilishni xush ko‘radilar va bu orqali huzurlanadilar. Shoir fosiq kishilarni ham iymon-e’tiqoqli bo‘lishga chaqiradi.

Barchaga ayonki, nafs hammani xarob qiladi, yomon yo‘lga boshlaydi. Shoirning maqsadi esa ana shu nafsning yomonligini anglash – o‘zligini tanish, demakki, ilohiylikni, ezgulikni anglashidir.

<sup>4</sup> B.Bekmetov. Sen bilan hayotman. Urganch: Xorazm, 2018, B71

<sup>5</sup> B.Bekmetov. Sen bilan hayotman. Urganch: Xorazm, 2018, B72

<sup>6</sup> A.Tursunov. Mashrab she‘riyatida o‘zlikni anglash yo‘li. Oriental Renaissance: Innovative, education, natural and social sciences, 2021, B193



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: Universitet, 2003.
2. B.Bekmetov. Sen bilan hayotman. Urganch: Xorazm, 2018
3. A.Tursunov. Mashrab she'riyatida o'zlikni anglash yo'li. Oriental Renaissance: Innovative, education, natural and social sciences, 2021.

